ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"NURAFSHON LOYIHA EKSPERTIZA" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Sarimsakov Shuxrat Kadirkulovich
Sana: 16-07-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

211952 - SONLI

Obyekt nomi: Yakka tartibdagi turar joy xonadonni kam qavatli "Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish va ofis" sifatida ixtisoslashtirib, qayta qurish qilish	
Buyurtmachi:	XOJIAKBAROV AZIZJON RAXIMJON O‘G‘LI
Bosh loyihachi:	"PRO LINE MAX" mas’uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan belgilanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	024485

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’i.

1.2. Shayxontohur tuman qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 2023 yil 3 fevraldagi 1726277-92085 sonli ruxsatnomasi.

1.3. Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 2023 yil 10 martda berilgan 1726-1726277-62502 ssonli arxitektura rejalashtirish topshirig’i.

1.4. 2023 yilda “GLOBUS-GEO-SERVIS” MCHJ tomonidan berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik tadqiqotlari natijalari to’g’risidagi xulosasi.

1.5. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ tomonidan tomonidan 2024 yil 4 iyunda berilgan 270/4-2215 sonli texnik sharti.

1.6. “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MCHJ tomonidan 2024 yil 30 mayda berilgan 05-0976 sonli texnik sharti.

1.7. “Hududgaz poytaxt” GTF tomonidan 2024 yil 12 iyunda berilgan 074009 sonli texnik sharti.

1.8. 2024 yil 17 mayda 6N/17-24 sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan shartnoma

1.9. Sanitariya epidemiologic osayishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasining Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 2023 yil 27 sentyabrda berilgan 109-19/5531 sonli insolyatsiya

xulosasi.

1.10. Beshqayrog’och ko’chasi 1a uy egasi Tolipov Ismoil Valiyevich va Beshqayrog’och ko’chasi 3 a uy egasi Boxodirov G’iyosxo’ja Yo’ldashevichlarning Shofayz MFY raisi tomonidan tasdiqlangan rozilik xatlari.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

"Batafsil loyihalash" loyihalash bosqichida loyiha-smeta hujjatlari, quyidagilardan iborat:

- Umumiy tushuntirish xati;
- Bosh reja, obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlarining loyiha chizmalari;
- Arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- Yong’inni avtomat o'chirish bo’yicha chizmalar;
- Ichimlik suvi va oqova suvi bo'yicha chizmalar;
- Isitish va sovutish bo'yicha chizmalar;
- Quyosh foto elektro stansiyasi va elektr yoritish bo'yicha chizmalar;
- Obyektning energiyasamarodorlik pasporti va issiqlik yo'qotish xisoboti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari

Qurilish maydoni IV qurilish -iqlim zonasiga kiradi va quyidagi tabiiy - iqlimiy hususiyatlarga ega:

- Tumanni zilzilabardoshligi - 8 ball, xisoblash uchun 9 ball;
- Qish mavsumida tashqi xarorat - minus 13gradus S;
- Shamol yuklamasi - 0,38 KPa;
- Qor yuklamasi - 0.5 KPa;
- Tuproqni cho'kuvchanlik toifasi - II (ikkininchi);
- Seysmik xususiyatlari bo'yicha tuproqlar toifasi - III (uchinchi);
- Yer ostisuvlari yer satxidan 8,0 metr pastda;
- Muzlash chuqurligi - 0,70 m.
- Poydevor osti grunti - loessga o'xshash tuproq, jigarrang rangli, makrog'ovak, kam namlangan va nam holatda, xar xil qattiqlikda, konsistensiyasi qattiq. Qo’shimcha yuklamalarda cho’kuvchan.

Qatlamning qalinligi 8,0 m.

3.2. Bosh reja

Bosh reja va obodonlashtirish SHNK 2.07.01-03 "Shaharsozlik" ga muvofiq amalga oshiriladi. Shahar va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish". Bosh reja va muhandislik tarmoqlari m 1:500, balandlik tizimi - Baltik, koordinata tizimi - mahalliy miqyosda topografik suratlarda amalga oshiriladi. Vertikal tartib sirt suvlarini olib tashlash uchun mavjud relyef va tartibga soluvchi nishabdan maksimal foydalanish bilan hal etiladi.

Relyefni tashkil etish rejasi qizil gorizontal usul bilan amalga oshiriladi, er osti suvlarini kompleks hududidan olib tashlash rejalashtirilgan drenaj tizimiga ochiq tarzda amalga oshiriladi. Asfalt betondan yulka va piyodalar maydonini qoplash ko'zda tutilgan. Hudud

maysazorlar, gullar, daraxtlar va butalar ekish bilan obodonlashtirilmoqda. Binolardan, yo'llardan va maydonlardan ozod bo'lgan hudud maysazor o'tlari bilan ekilgan. Dam olish maskanlari skameykalar, axlat qutilari bilan jihozlangan.

3.3. Qurilish maydoninig joylashgan manzili

Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Shofayz MFY, Muqanna ko’chasi, 53 uy.

3.4. Arxitektura va rejalashtirish yechimlari

Bino uch qavatli, trapetsiya shaklida, quyidagi tashqi o’lchamlariga ega “A-E/1-8” o’qlari orasida 28,7 x 26,9 m. Binoning ichki balandligi yer to’lada 3,0 m, 1 chi qavatdan 3 qavatgacha 4,0 m poldan shiftgacha. Binoda quyidagi xonalar ko’zda tutilgan:

Yer to’lada – omborxona va zinapoya;

1 chi qavatda – zinapoya, savdo zali, sanitar tugun, yordamchi xona, xodimlar xonasi;

2 chi qavatda - zinapoya, ofis, sanitar tugun, yordamchi xona, xodimlar xonasi;

3 chi qavatda - zinapoya, ofis, sanitar tugun, yordamchi xona, xodimlar xonasi, terassa.

Xajmiy texnik ko’rsatgichlar:

Qurilish maydoni – 635,0 m^2

Umumiy maydon – 2 527,66 m^2

Qurilish xajmi – 8 826,5 m^3

Ichki pardozlash ishlari

Pol – poliuretan qoplamali quyma temir beton, laminat, spool plitka.

Devorlar – qum semnt aralashmasidan suvoq, shpatlevka, suvli emulsiya bilan bo’yash.

Shift – osma Armstrong plitkasi va plastik. Shuningdek shpaklyovka, suvli emulsiya bo’yog'i bilan bo’yash.

Tashqi pardozlash ishlari

Devorlari – qum semnt aralashmasidan suvoq, shpatlevka, tashqi ishlarga mo’ljallangan bo’yoq bilan bo’yash

Devor tagligi - keramogranit.

Derazalar – alyuminiy, pvh.

Eshik va darvozalar - alyuminiy, metall.

3.5. Konstruktiv yechimlar

Bino quyma temir beton ramkali.

Poydevor - quyma temir beton lentali. Poydevor o’lchami 2000x400(h) mm, 2500x400(h) mm, 2850x400(h) mm, 2750x400(h) mm, 2850x400(h) mm,. Beton sinfi V20W4. Armaturlari Ø10AIII, Ø16AIII, Ø22AIII, Ø25AIII,Ø8AI.

Poydevor osti tayyorgarligi – 1000 mm qalinlikdagi poydevor osti yostig’i va 100 mm qalinlikda quyma beton. Beton sinfi V7,5.

Yer to’la qavati devori – quyma temir betonli, qalingi 400 mm. beton sinfi V20 W4. Armaturlari Ø10AIII, Ø8AI.

Ustun – quyma temir betonli. O'lchami 400x400mm. Beton sinfi V25W4. Armaturlari Ø16AIII, Ø22AIII, Ø25AIII, Ø8AI.

Rigel – quyma temir betonli. O'lchami 400x400mm. Beton sinfi V25. Armaturlari Ø22AIII, Ø25AIII, Ø8AI.

Qavatlar ora yopma – yig’ma temir betonli va quyma temir betonli. Qalinligi 200 mm. Beton qinfi V20. Armaturalari Ø12AIII, Ø16AIII, Ø6AI.

Yordamchi ustun – quyma temir betonli. O'lchami 130x400mm. Beton sinfi V15. Armaturlari Ø12AIII, Ø8AI.

Peremichka - quyma temir betonli. O'lchami 400x200 (h) mm. Beton sinfi V15. Armaturlari Ø14AIII, Ø8AI.

Zinapoya – quyma temir betonli. Beton sinfi V25 W4. Armaturlari Ø12AIII, Ø16AIII,Ø8AI.

Tom yopma – yig’ma temir beton plitasi va quyma temir betonli. Issiqlik isolyatsiya sifatida 100 mm qalinlikdagi penopleks listi, gidroisolyatsiya sifatida 2 qator polizol to’shamasi, yopmasiga spool plityka rejalashtirilgan.

Tashqi devorlar - pishgan gishtdan rejalashtirilgan. Devor qalinligi 250 mm.

Ichki devorlar - pishgan gishtdan rejalashtirilgan. Devor qalinligi 120 mm.

3.6. Binolarni energiya samaradorligi yechimlari

Bino energiya samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi loyiha yechimlari ishlab chiqilgan: Binoning Tashqi devorlarni, pardadevor va tomyopma qismlarini issiq tutuvchi materiallar (bazalt) bilan qoplash ko’zda tutilgan.

Elektr ta’minoti bo’limida ma`muriy bino tom qismida quyosh panellari o’rnatish, bino oldi yo’laklarni yoritishda yonib o’chadigan qurilmalarni yoki harakatni va yorug’likni sezuvchi yoritgichlar ko’zda tutilgan.

3.7. Yong'inga qarshi va texnik yechimlar

KMK 2.01.07-96 ga binoan binoning javobgarlik klassi II.

KMK 2.01.03-96 ga binoan binoning javobgarlik toifasi II.

KMK 2.04.01-98 ga binoan yong'inga chidamlilik darajasi II

Binoning yong'inga chidamliligi darajasi - II;

Funktsional yong'in xavfi bo'yicha – F3.1

Tashqi devorlar - pishgan gishtdan rejalashtirilgan. Devor qalinligi 250 mm.

Ichki devorlar - pishgan gishtdan rejalashtirilgan. Devor qalinligi 120 mm.

Ichki va tashqi pardozlash ishlarida yonmaydigan materiallar bilan bezatish rejalashtirlgan.

Yog’in va tutun haqida habar beruvchi signalizasiyasi loyihalashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichimlik suvi ta'minoti.

B1-maishiy ichimlik suvi.

Bino uchun suv ta'minoti manbai aylanma maydonchadagi tarmoqdir. Ic hki magistral suv ta'minoti quvurlari Ø25-20 mm polietilen quvurlardan rejalashtirilgan.

Tarmoqning alohida bo'limlarini ajratish uchun klapanlar o'rnatiladi.

4.2. Issiq suv ta'minoti.

Issiq suv ta'minoti ikki pallali devorga o'rnatilgan qozondan ta'minlanadi. Tarmoqlar PPR PN20 GOST R 52134-2003 bo'yicha diametri 20 mm-25 mm bo'lgan polipropilen quvurlardan tayyorlangan quvurlarni yotqizish orqali rejalashtirilgan.

4.3. Oqova suv tizimi.

Quvurlar Ø100-50 mm bo'lgan plastik erkin oqim quvurlaridan tayyorlanadi. Oqova suv tizimi yashirin - pol ostiga yotqizilgan. Oqova suvni tizimi ko'targichlarining egzoz qismi d=0,5 mm Ø100 galvanizli po'latdan yasalgan va tomga 0,5 m balandlikda o'rnatiladi. Tarmoqdagi blokirovkalarni bartaraf etish uchun tekshiruvlar va tozalashlarni o'rnatish rejalashtirilgan.

4.4. Quyosh foto elektro stansiyasi yechimlari

Elektr bir fazali 10 kVtli quyosh foto elektro stansiyasi rejalashtirilgan. Xar bir xonadon tomiga xar biri 550 Vt li 10 donadan quyosh panelleri o'rnatish va 1 fazali gibrid invertori o’rnatish rejalashtirilgan.

4.5. Isitish va shamollatish yechimlari

Shamollatish timi

Tizim mexanik va tabiiy impuls bilan egzoz ventilyatsiyasini ta'minlaydi. Yuvinish va hojatxonalardan kanal fanatlari yordamida shamollatiladi. Boshqa xonalardan shamollatish tabiiy ravishda hal qilinadi. Shamollatish tizimi avtomatlashtirilgan. Havo kanallari GOST 14918- 94 bo'yicha galvanizli po'latdan yasalgan. Havo oqimi tabiiy ravishda shamollatish derazalar orqali boshqariladi.

Isitish tizimi

Binoning isitish tizimi hojatxonaga o’rnatilgan ikki konturli isitish qozoni orqali isitiladi. Issiqlik tarmog'i bir quvurli. Binolardagi ichki havo harorati ShNK 2.08-02-09* ga muvofiq xizmat ko'rsatiladigan binolarda zarur havo haroratini ta'minlaydigan isitish tizimi tomonidan saqlanadi. Isitish moslamalari sifatida ish bosimi 16 atmgacha bo'lgan 1-qism-0,175 kVt quvvatga ega bimetalik seksiyali radiatorlar ishlatilgan. Havoni olib tashlash yuqori radiator vilkalaridan kichik o'lchamli havo chiqarish klapanlari va isitish tizimlarining eng yuqori nuqtalarida avtomatik ravishda klapanlar yordamida amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi tomonidan talab va takliflar yo'q'.

5.2. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi organining 2024 yil 30 martdagi 107552694 sonli xulosasi.

5.3. Davlat ekologik ekspertiza markazi Toshkent shahar filiali tomonidan 2024 yil 24 iyunda berilgan 01-02/14-1076 sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi ko'rib chiqildi.

6.2. Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o’rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar

ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'ienergitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to'liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.5. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31- martdagi 255-son qarori talablariqa rioya etilsin.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20- apreldagi 200-son qarorlari talablariga qat'iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyihasmeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda “Yakka tartibdagi turar joy xonadonni kam qavatli "Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish va ofis" sifatida ixtisoslashtirib, qayta qurish qilish" ob'ekti loyihasi qurilish montaj ishlari 2 828 846,55 ming so'mni (QQS ni xisobga olmagan holda) tashkil etib kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ishtirok etgan mutahasislar:

Bosh ekspert - Erkaboyev Ch.

Arxitekura yechimlari qismi bo'yicha - Tusunov A.

Konstrukyiya yechimlari qismi bo'yicha - Erkaboyev Ch.

Yong'in xavfsizligi yechimlari qismi bo'yicha - Shakurov R.

Energiya samaradorligi yechimlari qismi bo'yicha - Ochilov F.

Muhandislik tarmoqlari yechimlari qismi bo'yicha - Shernazarov E.